

Farg'ona viloyati XTXQTMOI ijtimoiy –
iqtisodiy fanlar kafedra mudiri, iqtisod
fanlari nomzodi, dotsent Haydarov
Xoshimjon Urinbayevichning “ Mehnat
bozori va ishsizlik ” mavzusida tayyorlagan

DARS ISHLANMASI

Farg'ona 2015

TAQRIZ

Ushbu dars ishlanma “Dars muqaddas” asosida ilg’or pedagogik texnologiyalar “Aqliy xujum”, “Zinama zina”, “Klaster” interfaol usullardan foydalangan holda 9-sinf Iqtisodiy bilim asoslari fani **“Mehnat bozori va ishsizlik”** mavzusida yaratilgan. Ushbu dars ishlanma o’quvchilarning mavzuni qiyinchiliksiz o’zlashtirishlarida o’z samarasini beradi.

Mavzuni o’rganish davomida o’quvchilarning mustaqil fikrlashlari, nutq madaniyatining shakllanishiga, matematik salohiyatlarini oshirishlariga yordam beradi.

Guruhlarda ishlash orqali o’quvchilarning faolliklari oshadi. Mavzuni yoritishda darslik bilan qo’shimcha prezident ma’ruzalaridan, “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari. I.Karimov. asaridan va internet ma’lumotlaridan keng foydalanilgan.

Taqrizchi:

Farg’ona Davlat Universiteti iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida professori iqtisod fanlari doktori A G’ofurov

ijtimoiy-iqtisodiy fanlar
kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi dotsent

Xaydarov Xoshimjon.Urinbaevichning .

“Mehnat bozori va ishsizlik” mavzusida 9-sinflarda “ yozilgan dars ishlanmasi
FVXTXQTMOI Ijtimoiy -iqtisodiy kafedrasining yig’ilishida muhokama qilindi.

Iqtisodiy bilim asoslari fani bo'yicha o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha tayyorlangan bir soatlik dars ishlanma

Mavzu: Mehnat bozori va ishsizlik

Maqsad:

Ta'limiy : o'quvchilarga mehnat bozori va ishsizlik , ishsizlik turlari va uning mamalakat iqtisodiyotiga ta'siri haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash o'quvchilarga mehnat bozori va ishsizlik, uni hal etishda davlatning o'rni haqida, ishsizlikni oldini olish bo'yicha o'z fikrlarini bildirishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarga mustaqil fikrlashni, o'z fikrini to'g'ri bayon eta olishni o'rgatish.

Dars turi: yangi bilim berish.

Dars uslubi: ma'ruza, savol-javob, guruhlarda ishlash.

Dars usuli: "Aqliy hujum", "zinama-zina"

Dars jihozi: darslik, ishsizlik turlari ko'rsatilgan jadval-plakatlar, "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari. I.Karimov. O'zbekiston siyosiy haritasi, tarqatma test, savollar, vatman, markerlar.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: Salomlashish, o'quvchilar davomatini aniqlash, ma'naviyat daqiqasi o'tkazish, mamalakatimiz iqtisodiyotidagi yangiliklarni muhokama qilish.

O'tgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar:

- 1.Inflatsiya nima?
- 2.Fisher tenglamasini tushunirib bering
- 3.Mamalakatda qancha pul muomalada bo'lishi kerak?

4. Inflatsiyaga olib keluvchi sabablarni ayting.

Yangi mavzu bayoni;

Reja:

1. Mehnat bozori.

2. Ishsizlik.

3. Ishsizlik turlari.

Inson mehnati, uning ishchi kuchi tovar hisoblanib, mehnat bozorida sotiladi va sotib olinadi.

Ishchi kuchi taklifi- ishchi kuchining narxi bilan o'z ishchi kuchini bu narxda sotishga rozi bo'lgan ishchilar soni o'rtasidagi bog'lanish bo'lib, u ma'lum vaqt davomida turli narxlarda qancha ishchi o'z ishchi kuchini sotishga rozi ekanligini anglatadi.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab- ishchi kuchining narxi bilan korxonalarning unga nisbatan ehtiyoji o'rtasidagi bog'lanish bo'lib, ma'lum vaqt davomida turli narxlarda ishchining ishchi kuchi korxonalar tomonidan sotib olinishini bildiradi.

Ishsizlik- mamalakatda ishga layoqatli, belgilangan maoshga ishlashni xoxlovchi va ish qidirib yurgan fuqarolarning borligi bilan ifodalanadi. Mehnatga layoqatli aholi deganda, 16 yoshdan katta va mehnat qilishga qodir kishilar tushuniladi.

Ishsizlar- mamalakatning ishga layoqatli, belgilangan ish haqi evaziga ishlashga rozi, lekin ish topa olmagan yoki ish qidirib yurgan fuqarolari.

Mehnatresurslari- mamalaktning ja'mi mehnatga layoqatli aholisi.

Ishsizlik darajasi – mamalakatdagi ishsizlar sonining , mamalakat ishchi kuchining umumiy soniga nisbatan foiz miqdori.

Ishsizlik darajasini topish formulasi:

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{ishsizlar soni}}{\text{ishchi kuchi soni}} * 100\%$$

Guruhlarda ishlash (Zinama-zina o'yini)

Sinf o'quvchilari 4 ta guruhga bo'linadi. Guruhlarga ishsizlik turlarini mustaqil o'rganish topshiriladi. Har bir guruh ishsizlikning 4 ta turi haqida ma'lumotlar to'playdi va yozib chiqishadi. Guruhlardan bittadan vakil chiqib ishsizlik turlari: Friksion ishsizlik, mavsumiy ishsizlik, tarkibiy ishsizlik, davriy ishsizlik haqida ma'lumot beradilar va har bir ishsizlik turiga misol keltiradilar. O'z taqdimot ishlarini sinf doskasida zinama-zina ko'rinishda joylashtirishadi.

Friksion ishsizlik- odamlarning bir ishdan bo'shab, ikkinchi ishga joylashayotgan paytda yuzaga keladigan ishsizlik.

Mavsumiy ishsizlik-mavsumiy ishlarning tugashi natijasida kelib chiquvchi ishsizlik.

Tarkibiy ishsizlik-mamlakat iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida kelib chiqadigan ishsizlik.

Davriy ishsizlik-mamalakat iqtisodiyotining davriy o'zgarishlari bilan bog'liq barcha sohalarni qamrab oladigan ishsizlik.

Mavzuni mustahkamlash.

Mustahkamlash uchun “aqliy hujum” metodidan foydalaniladi.

Aqliy hujum savollari:

- 1.Ishsizlik nima?
- 2.Ishsizlar kimlar?
- 3.Mehnat resurslari deb nimaga aytiladi?
- 4.Ishsizlikning qanday turlari bor?
- 5.Hozir mamalakatimizda ishsizlikning qanday turlari mavjud?

Baholash: darsda faol qatnashgan o’quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa: mamalakatimizda ishsizlikning oldini olish va yangi ish o’rinlari yaratish bo’yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida mustaqil ish tayyorlab kelish.